QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI SHAHRI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko‘chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2024 - yil 4 - mart 93-4-69-Q/24 Qarshi shahar hokimligi

Qarshi shahar hokimining 2024-yil 06-yanvardagi 12-4-69-Q/24-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6-, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi “Avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-298-son Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimining 2024-yil 06-yanvardagi 12-4-69-Q/24-son qarorining 3-bandiga o‘zgartirish kiritilib, quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

- 3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n bir yildan o‘n to‘rt yilgacha (o‘n to‘rtinchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n besh yil va undan ortiq bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

2. Qarorning qolgan bandlari o‘zgarishsiz qoldirilsin.

3. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimning qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.b G‘.Sultonov zimmasiga yuklansin.

Qarshi shahar hokimi **N.Xolboyev**